

G'aybullayev Shonazar Mirboboyevich
Buxoro davlat universiteti
Sirtqi va masofaviy ta'lim bo'limi boshlig'i
shonazargaybullayev5@mail.com
UDK: 371.12:005.7

MAKTAB TA'LIMIDA PEDAGOGLARNING INTELLEKTUAL SALOHIYATI

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktab ta'limi tizimida pedagoglarning intellektual salohiyati va uning ta'lim-tarbiya jarayonidagi o'rni tahlil etilgan. Pedagog intellektual salohiyatining tarkibiy qismlari — kasbiy bilimlar, tafakkur madaniyati, pedagogik qobiliyatlar, ijodiy yondashuv hamda uzluksiz o'z ustida ishlash jarayoni yoritib berilgan. Shuningdek, zamonaviy ta'lim sharoitida o'qituvchining intellektual rivoji o'quvchilarning bilim sifati, mustaqil fikrlashi va shaxsiy kamolotiga bevosita ta'sir etishi asoslab berilgan. Maqolada pedagoglarning intellektual salohiyatini rivojlantirish omillari, pedagogik mahorat bilan uzviy bog'liqligi hamda maktab ta'limi samaradorligini oshirishdagi ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan ochib berilgan.

Kalit so'zlar: pedagogik mahorat, intellektual salohiyat, maktab ta'limi, o'qituvchi shaxsi, kasbiy kompetensiya, ta'lim samaradorligi.

Kirish. Bugungi kunda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti va globallashtirish jarayonlari maktab ta'limi oldiga yangi va muhim vazifalarni qo'yimoqda. Ushbu vazifalarning samarali bajarilishi, avvalo, pedagoglarning intellektual salohiyati, kasbiy mahorati va zamonaviy bilimlarga ega bo'lishiga bevosita bog'liqdir. Chunki maktab ta'limi jarayonida o'quvchi shaxsining shakllanishida o'qituvchi asosiy yetakchi omil hisoblanadi.

Pedagogning intellektual salohiyati uning chuqur kasbiy bilimlari, tahliliy va tanqidiy tafakkuri, pedagogik qobiliyatlari, ijodkorligi hamda uzluksiz o'z ustida ishlashga bo'lgan intilishi orqali namoyon bo'ladi. Zamonaviy ta'lim sharoitida o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodiy salohiyati va ma'naviy kamolotini rivojlantiruvchi shaxs sifatida faoliyat yuritishi lozim. Shu bois maktab ta'limida pedagoglarning intellektual salohiyatini rivojlantirish masalasi dolzarb ilmiy-pedagogik muammo sifatida e'tirof etiladi.

Mazkur maqolada pedagoglarning intellektual salohiyati tushunchasi, uning tarkibiy qismlari, pedagogik mahorat bilan o'zaro bog'liqligi hamda maktab ta'limi samaradorligini oshirishdagi ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etiladi.

Materiallar va metodlar: Tadqiqotda o'qituvchilar ta'lim dasturlari bo'yicha so'rovlar miqdoriy ma'lumotlarini o'qituvchilar va o'qituvchi nomzodlari bilan bo'lgan intervyularning sifatli ma'lumotlari bilan birlashtirgan aralash usullar qo'llaniladi. Bundan tashqari, xulosalarni kontekstuallashtirish uchun intellektual kompetensiya va o'qituvchilar ta'limiga oid tegishli adabiyotlarni ko'rib chiqiladi.

Muhokama va natija. O'qituvchi, avvalo, o'z kasbini sevishi, o'quvchilarning imkoniyatlariga ishonishi va ularni bilim olishga, shaxs sifatida mukammallashtirishga chin dildan undaydigan shaxs bo'lishi zarur. Pedagog shaxsida tarbiya obyektiga nisbatan gumanistik yo'nalish ustun bo'lishi muhim. Bu esa o'quvchini ta'lim jarayonining markaziga qo'yish, uning qadr-qimmatini hurmat qilish, individual imkoniyatlarini hisobga olish orqali namoyon bo'ladi. Pedagogning intellektual salohiyati deganda o'qituvchining kasbiy faoliyatini beqamaloq amalga oshirishi uchun zarur bo'lgan bilimlar majmui, fikrlash qobiliyati, tahlil va ijodkorlik salohiyati, hamda muammolarni hal etish kompetensiyasining uzviy birligi tushuniladi. Pedagog intellektual salohiyatining asosiy tarkibiy qismlarini quyidagicha belgilashimiz mumkin:

 Ilmiy-nazariy bilimlar - o'qitiladigan fan, pedagogika, psixologiya va metodika sohasidagi chuqur bilimlar.

✚ Mantiqiy va tanqidiy fikrlash -ta'lim jarayonidagi muammolarni tahlil qilish, xulosa chiqarish va asosli qaror qabul qilish qobiliyati.

✚ Ijodiy tafakkur - yangi pedagogik g'oyalar, innovatsion yondashuvlar va samarali metodlarni ishlab chiqish layoqati.

✚ Muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyati - o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda optimal pedagogik yechim topish.

✚ Axborot bilan ishlash kompetensiyasi - zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish, ma'lumotni izlash, tanlash va qayta ishlash ko'nikmalari.

✚ Refleksiya va o'z-o'zini rivojlantirish - o'z faoliyatini tahlil qilish, xatolarni anglash va kasbiy rivojlanishga intilish.

Pedagoglarning intellektual salohiyati o'qituvchining ta'lim sifati, o'quvchilarning rivojlanish darajasi va innovatsion faoliyat samaradorligini belgilovchi muhim omil bo'lib, u doimiy ravishda o'z ustida ishlash orqali rivojlanib boradi.

Pedagogik mahoratning muhim tarkibiy qismi — o'qituvchining kasbiy bilimlaridir. Shuningdek, o'qituvchi butun faoliyati davomida o'z ustida ishlashi, bilim va ko'nikmalarini doimiy ravishda rivojlantirib borishi zarur. Uning g'oyaviy-siyosiy saviyasi, nazariy, pedagogik-psixologik, uslubiy va texnologik bilimlari mukammal bo'lishi pedagogik faoliyat samaradorligini oshiradi.

Pedagogik qobiliyat o'qituvchining o'z kasbiy faoliyatiga qanchalik yaroqli ekanligini ifodalovchi sifatlar majmuasidir. Ilmiy tadqiqotlarda pedagogik qobiliyatning turli jihatlari o'rganilgan bo'lib, ularni umumlashtirgan holda 9 ta asosiy pedagogik qobiliyat ajratib ko'rsatiladi. Aynan shu qobiliyatlar o'qituvchiga pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli tashkil etish, ta'lim-tarbiya jarayonida yuqori natijalarga erishish imkonini beradi.

Rus tili lug'atlarida "mahorat" tushunchasi "biror sohada erishilgan mohirlik darajasi" sifatida talqin etiladi. Ushbu yondashuv pedagogik mahoratga nisbatan ham qo'llaniladi. Biroq pedagogik mahorat tushunchasiga nisbatan yagona va umumqabul qilingan ta'rif mavjud emas. Bu holat pedagogik faoliyatning murakkab va ko'p qirrali ekanligi bilan izohlanadi.

Ayrim olimlar pedagogik mahoratni o'qituvchining shaxsiy fazilatlar majmui sifatida baholasa, boshqalari uni bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisi deb hisoblaydi. Uchinchi guruh tadqiqotchilar esa pedagogik mahoratni shaxsiy xususiyatlar hamda kasbiy bilim va malakalarning uyg'unlashgan tizimi sifatida talqin qiladi. Shuningdek, ayrim manbalarda pedagogik mahorat pedagogik faoliyatni amalga oshirish darajasi, ya'ni ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligi bilan izohlanadi. Bu turli qarashlar pedagogik mahoratning murakkab, tizimli va dinamik tushuncha ekanligini ko'rsatadi.

Pedagogik mahoratning asosi o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi jarayonida, ya'ni oliy pedagogik ta'lim muassasalarida o'qish davridayoq shakllana boshlaydi. Bu davrda talaba pedagog nazariy bilimlar, pedagogik-psixologik asoslar, metodik tayyorgarlik hamda dastlabki amaliy ko'nikmalarni egallaydi. Aynan shu bilim va ko'nikmalar pedagogik mahoratning zarur sharti hisoblanadi. Biroq ular o'z-o'zidan yetuk pedagogik mahoratni ta'minlamaydi, balki uning poydevorini yaratadi.

O'qituvchi o'z malakasiga ko'ra mohir pedagog darajasiga ko'tarilishi uchun bir necha yil zarur bo'ladi. Bu jarayon individual bo'lib, pedagogning o'z ustida ishlashi, ijodiy yondashuvi va kasbiy faolligiga bevosita bog'liqdir.

Pedagogning bilim, ko'nikma va malakalari pedagogik mahorat asoslarining tarkibiy qismi sifatida ikki darajada namoyon bo'ladi. Birinchi daraja — pedagogning oliy ta'lim muassasasida o'qish jarayonida egallagan boshlang'ich pedagogik tayyorgarligi va dastlabki tajribasidir. Ikkinchi daraja esa bevosita kasbiy-amaliy faoliyat jarayonida shakllanadigan pedagogik tajribani o'z ichiga oladi.

Bu ikki daraja o'zaro uzviy bog'liqdir. Agar pedagogning boshlang'ich tayyorgarlik darajasi yuqori bo'lsa, u amaliy faoliyatda tezroq moslashadi, kasbiy tajribani samarali egallaydi va pedagogik mahoratga qisqa muddatda erishadi. Aksincha, tayyorgarlik yetarli bo'lmasa, pedagogik mahoratni shakllantirish jarayoni murakkablashadi va uzoq vaqt talab etadi.

Olib borilgan kuzatishlar va AQSh, Germaniya, Yaponiya, Fransiya va boshqa sanoati hamda intellektual bilimlari rivojlangan mamlakatlarning tajribasi shuni ko'rsatib turibdiki, yuqori malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, asosan, quyidagilarga bog'liq bo'lar ekan:

- ta'lim, fan va ishlab chiqarishning o'zaro samarali aloqadorligiga;
- ta'lim muassasalari va professional ta'lim dasturlari turlarining (tiplarining) xilma-xilligi, ularda fan va texnikaning eng oxirgi yutuqlari, iqtisodiyot va texnologiyalarning eng yuqori andozalari va ko'rinishlari qay darajada aks ettirilganligiga;
- professional ta'lim tizimini ustuvor va foyda keltiruvchi iqtisodiy tarmoqqa aylantirishga;
- ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv-metodik adabiyotlar bilan ta'minlash va ularning moddiy-texnik asosini yaratish hamda ularning moliyaviy ko'rsatkichlarini mustahkamlashga;
- professional ta'lim tizimiga eng yuqori malakali o'qituvchilarni va mutaxassislarni jalb etishga;
- o'quv jarayonini informatizatsiyalash va kompyuterlashtirishga;
- kadrlarni tayyorlashning sifat bahosini va obyektiv nazorat tizimini qo'llashga;
- shaxsning rivojlanishi, o'lchovi, sifat va hulqini, qobiliyat va intellektini baholash hamda kasbiy mahorati muammolariga bag'ishlangan psixologik -pedagogik izlanishlarni bajarishga;
- o'qituvchilarni yuqori darajada moddiy rag'badantirish va ularni ijtimoiy himoyalab turishga.

Bugungi kun mutaxassisi har tomonlama rivojlangan yuqori darajadagi intellektga ega bo'lgan, fan asoslarini chuqur o'rgangan bilimdon, zukko, dono, fidoiy, ma'rifatli va ma'naviyatli inson bo'lishi kerak. U o'z mutaxassisligi, masalan, iqtisodchilikdan tashqari, xorijiy tillardan birini bilishi hamda AKT dan foydalana olishi shart. Zamonaviy pedagog yuqori madaniyatli, xalqimiz tarixini chuqur biladigan va uning kelajagi uchun jon kuydiradigan insonparvar va oliyanob kishi bo'lishi kerak. Uzlusiz ta'lim tizimini amalga oshirish jarayonida yosh avlodni ko'ngildagidek o'qitish va tarbiyalash haqida gap borar ekan, bunday g'oyat murakkab va ko'p qirrali vazifani faqat yuksak malaka va pedagogik mahoratga ega bo'lgan o'qituvchi kadrlar bilangina amalga oshirish mumkinligini ta'kidlash lozim. Shunday ekan, o'qituvchilik - katta san'atdir. Bu san'atga u yoki bu pedagog osongina, o'z-o'zidan erisha olmaydi. Shuning uchun, o'qituvchilik kasbiga, ya'ni sog'lom avlod uchun chinakam murabbiy bo'lishga havasi, ishtiyoqi zo'r, zamon talablarini tez va chuqur tushunadigan, o'zining ilmiy, ijtimoiy-siyosiy saviyasini, pedagogik mahoratini izchillik bilan amalga oshirib boruvchi, mustaqillik g'oyasi va mafkurasi bilan puxta haqiqiy vatanparvar va mehnatsevar kishilargina erisha oladilar. Pedagogik mahorat tug'ma talant yoki nasldan-naslga o'tuvchi xususiyat emas, balki uning negizida izlanish va ijodiy mehnat yotadi. Shuning uchun ham pedagogik mahorat hamma o'qituvchilar uchun standart, ya'ni bir qolipdagi ish usuli emas, balki u har bir o'qituvchining o'z ustida ishlashi, ijodiy mehnati jarayonida tashkil topadi va rivojlanadi. Bu jarayonda ilg'or o'qituvchining pedagogik mahorati va tajribalarini boshqa o'qituvchi o'rganishi, undan ijodiy foydalanishi va o'z faoliyatini ilg'or tajribalar bilan boyitishi zarur. O'qituvchining pedagogik mahorati, asosan, sinfda, auditoriya mashg'ulotlarida yaqqol ko'rinadi. Chunki o'quv mashg'ulotlari o'zining mazmun va mohiyatiga ko'ra o'qituvchining o'quv yurtidagi asosiy ishidir. Shuning uchun u ilmiy-g'oyaviy jihatdan yetuk va ommabop bo'lishi, turmush bilan, o'quvchi yoki talabalarning tayyorgarlik darajasi bilan uzviy aloqador bo'lishi zarur. Ta'lim jarayonida o'qituvchi bilan o'quvchi yoki talabalar o'rtasida o'zaro jonli til muloqoti, fikr almashuv munosabatlari, samimiy hurmat va asosiy maqsadga erishishda yaqin hamkorlik lozim. Mazmuni sayoz, amaliy tajribadan, turmushdan ajralib qolgan, umumiy so'z va quruq nasihatgo'ylikdan iborat bo'lgan, rasmiyat uchun yuzaki o'tkaziladigan dars (ma'ruza) va boshqa o'quv mashg'ulotlari o'quvchi talabalarni qiziqtirmaydi, ularni ilmiy, g'oyaviy jihatdan yetarli oziqlantirmaydi. Shu sababli, o'quv mashg'ulotlarini shunday tashkil qilish kerakki, ularning ta'sirida talabalarda shu fanga nisbatan turli qarashlar, ilmiy tafakkur va e'tiqodlar vujudga kelishi va shakllanishi kerak. Ta'lim va tarbiyajarayoni ta'sirchanligining yanada yuksak bo'lishi o'qituvchining ilmiy salohiyatiga, yoshlar oldidagi obro'siga, shaxsiy sifatlariga, ilmiy iste'dodiga, ta'lim sohasidagi tajriba va mahorati hamda o'quvchi bilan o'rnatilgan do'stona munosabatiga bog'liqdir. Zamon talablari professor-o'qituvchilarning o'zlarida mavjud bo'lgan

bilim va saviya bilan cheklanib qolmasdan, xorijiy mamlakatlar tajribasini qunt va sabot bilan o'rganib, mag'zini chaqib, undan keyin o'z talabalariga saboq berishlari zarurligini taqozo etadi. Pedagogik faoliyat samarasi o'qituvchining pedagogik qobiliyati qay darajada shakllanganligiga ham bog'liqdir. Qobiliyat-faoliyat jarayonida paydo bo'ladi va rivojlanadi, deb ta'kidlanadi. Jumladan, bilish qobiliyati, tushuntira olish qobiliyati, nutq qobiliyati, obro' ortira olish qobiliyati, muomala qila bilish qobiliyati kabilar. Pedagogik qobiliyat va mahorat o'qituvchida osonlik bilan shakllanmaydi. Bu kasbni tanlagan kishi o'z maqsadiga erishish uchun uzluksiz o'qishi, o'rganishi va izlanishi, ijodiy mehnat qilishi, o'z yurti va dunyodagi real voqelikni tez anglashi lozim. O'qituvchining pedagogik mahorati haqida fikr yuritar ekanmiz, uning milliy g'oya va mafkuraga sodiqligiga, bilish va fikr doiralarning kengligiga, o'z vazifasiga munosabatiga e'tibor bermoq kerak. Ayniqsa, pedagogik mahorat bobida o'qituvchining fikr doirasi keng bo'lish zarurligini alohida hisobga olish lozim. Chunki kishida bilim va fikr mukammal bo'lmasa, u kamolotga erisha olmaydi. Darhaqiqat, kishi u yoki bu masalani, albatta, fikr orqali hal etadi. Shuning uchun, pedagogik mahorat sohibi bo'lishga intilgan kishi, shubhasiz, o'z bilimini doimo kengaytirishi, o'zining o'quvchiga ma'naviy-axloqiy ta'sir etuvchi g'oya va fikrlarini yangilab borishi zarur. Buning uchun u ko'p o'qishi va o'rganishi lozim. O'qituvchining pedagogik mahoratiga baho berishda uning ta'limni qay darajada tashkil qila bilishi muhim ahamiyatga egadir.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, maktab ta'limi tizimida pedagoglarning intellektual salohiyati ta'lim-tarbiya jarayonining sifat va samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Intellektual jihatdan yetuk, kasbiy bilimlarga ega, tahliliy va ijodiy fikrlay oladigan pedagog o'quvchilarda bilim olishga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi, mustaqil fikrlash va shaxsiy rivojlanish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Pedagoglarning intellektual salohiyatini rivojlantirish uzluksiz kasbiy ta'lim, o'z ustida ishlash, innovatsion pedagogik texnologiyalarni egallash va amaliy faoliyatda ijodiy yondashuvni talab etadi. Shuningdek, pedagogik mahorat bilan intellektual salohiyatning uzviy bog'liqligi o'qituvchining kasbiy yetukligini ta'minlab, maktab ta'limining raqobatbardoshligini oshiradi. Demak, maktab ta'limi tizimida pedagoglarning intellektual salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli va maqsadli faoliyat jamiyatning intellektual taraqqiyoti hamda barkamol avlodni tarbiyalashning muhim sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Елина Е.Г., Ковтун Е.Н., Родионова С.Е. Компетенции и результаты обучения: логика представления образовательных программах. // Ж.: Высшее образование в России, 2015. № 1. С.10-20.
2. Зимняя И.А. Ключевые компетенции – новая парадигма результатов образования. // Интернет-журнал “Эйдос”, 2009. С. 56-61.
3. Кононова В.Н. Современные методы как инструмент управления качеством образования. – М., 2016. 387 с.
4. Архангельский С.И. Учебный процесс в высшей школе, его закономерные основы и методы / С.И. Архангельский. – М.: Высшая школа, 1980. – С. 368.
5. Резниченко М. Г. Формирование воспитательного пространства вуза: дис. ... д-ра пед. наук [Текст]: 13.00.08 / Резниченко Мария Геннадьевна. – Москва, 2009. – С. 247.